

**XORAZM VILOYATINING  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **5 944** tani tashkil etib, 2023- yil 1- fevralga nisbatan **795** taga oshgan (o'sish sur'ati **115,4 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **85** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 859** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **541,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **83,7 %** ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **69,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **122,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **471,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **80,0 %**), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **122,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **88,8 %**) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>541,1</b>	<b>83,7</b>	<b>69,3</b>	<b>122,3</b>	<b>471,8</b>	<b>80,0</b>
Urganch sh.	115,7	77,3	38,2	102,0	77,5	69,1
Xiva sh.	25,1	88,8	3,1	134,0	21,9	84,7
Bog'ot	35,9	80,9	0,4	84,5	35,5	80,8
Gurlan	43,9	90,9	0,5	51,6	43,5	91,7
Qo'shko'pir	29,4	99,1	2,5	140,2	26,9	96,6
Urganch	63,4	81,4	9,8	295,8	53,5	71,9
Hazorasp	67,1	81,4	3,0	59,3	64,1	82,9
Tuproqqal'a	12,8	88,0	0,0	124,8	12,8	87,9
Xonqa	35,9	79,1	2,2	98,8	33,7	78,1
Xiva	27,7	98,2	6,3	1 496,4	21,4	77,1
Shovot	40,9	91,9	2,5	208,1	38,4	88,7
Yangiariq	27,4	85,4	0,3	105,5	27,1	85,2
Yangibozor	16,0	75,5	0,5	42,2	15,5	77,4

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Qo'shko'pir tumani (**99,1 %**), Xiva tumani (**98,2 %**), Shovot tumani (**91,9 %**) va Gurlan tumani (**90,9 %**)da chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar, mlrd so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **131,4 %** ni yoki **791,5** mlrd so'mni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)



2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 83,7 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahrida **21,4 %** bilan **115,7 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,4 %** bilan **12,8 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **471,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **20,0** % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,2** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **22,3** %ga o'sdi va **69,3** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,8** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,8 %**), Gurlan, Yangiariq, Bog'ot (**98,9 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **12,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**33,0 %**), Xiva (**22,7 %**), Urganch (**15,5 %**) tumanlari hamda Xiva shahrida (**12,5 %**) kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>278,8</b>	<b>82,3</b>
Urganch sh.	780,4	76,0
Xiva sh.	260,9	87,2
Bog'ot	209,7	79,4
Gurlan	286,8	89,4
Qo'shko'pir	165,5	97,7
Urganch	305,5	79,9
Hazorasp	334,9	80,3
Tuproqqal'a	224,0	85,2
Xonqa	185,6	77,7
Xiva	183,3	96,7
Shovot	232,9	90,4
Yangiariq	228,3	84,1
Yangibozor	177,7	74,3

2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **278,8** ming so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **82,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**780,4** ming so'm), Hazorasp (**334,9** ming so'm) va Urganch (**305,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **122,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **88,8** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **50,2** mlrd so'mni (77,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **72,4** mlrd so'mni tashkil etdi (**98,4** %).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda

Dehqon bozorlar

Chorva bozorlar



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>122,6</b>	<b>88,8</b>	<b>50,2</b>	<b>77,8</b>	<b>72,4</b>	<b>98,4</b>
Urganch sh.	18,7	54,9	7,7	32,4	11,0	107,1
Xiva sh.	5,5	161,4	4,7	138,1	0,8	-
Bog'ot	16,9	83,2	3,9	102,9	12,9	78,7
Gurlan	16,1	99,9	3,5	93,1	12,6	101,9
Qo'shko'pir	14,5	156,3	8,7	171,9	5,8	137,5
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	14,9	86,1	7,2	81,5	7,7	90,9
Tuproqqal'a	1,7	291,4	0,9	299,1	0,8	283,5
Xonqa	6,9	84,3	4,4	75,0	2,6	107,1
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	21,0	109,4	4,9	122,6	16,0	106,0
Yangiariq	3,9	81,6	2,4	87,8	1,5	73,3
Yangibozor	2,6	51,5	1,9	63,1	0,6	33,2

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **50,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**23,2** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>23,2</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>3,2</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>7,9</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>3,7</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>3,2</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>2,0</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>1,8</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>2,6</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>1,3</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>1,0</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>0,4</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>-</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi **72,4** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **62,9** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar – **8,6** mlrd so‘mni, parrandalar – **0,8** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	31,2
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	21,9
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	9,8
	Qo‘ylar	7,4
	Otlar	0,0
	Echkilar	1,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,5
	Tovuqlar	0,3
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 462** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – fevral holatiga nisbatan **117** taga oshgan va o'sish sur'ati **108,7 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 461** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining ulushi **2,6 %** ni tashkil etib, **13,8** mlrd so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **24,5 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **98,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>13,8</b>	<b>75,5</b>	<b>0,1</b>	<b>-</b>	<b>13,7</b>	<b>74,6</b>
Urganch sh.	6,6	74,8	0,1	-	6,5	73,0
Xiva sh.	0,5	77,0	-	-	0,5	77,0
Bog'ot	0,5	78,0	-	-	0,5	78,0
Gurlan	0,4	79,1	-	-	0,4	79,1
Qo'shko'pir	0,2	81,9	-	-	0,2	81,9
Urganch	2,2	73,4	-	-	2,2	73,4
Hazorasp	0,7	77,2	-	-	0,7	77,2
Tuproqqal'a	0,3	78,2	-	-	0,3	78,2
Xonqa	0,4	79,2	-	-	0,4	79,2
Xiva	0,4	76,9	-	-	0,4	76,9
Shovot	1,1	77,2	-	-	1,1	77,2
Yangiariq	0,3	79,8	-	-	0,3	79,8
Yangibozor	0,3	69,2	-	-	0,3	69,2

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **310,8** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,7 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **161,6** mlrd so'm (o'sish sur'ati- **93,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **149,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **132,6 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd so'm	Ulushi, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>310,8</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	290,5	93,5
Xiva sh.	0,9	0,3
Bog'ot	1,9	0,6
Gurlan	0,3	0,1
Qo'shko'pir	0,0	0,0
Urganch	3,7	1,2
Hazorasp	7,7	2,5
Tuproqqal'a	0,2	0,1
Xonqa	4,7	1,5
Xiva	0,0	0,0
Shovot	0,6	0,2
Yangiariq	0,2	0,1
Yangibozor	0,1	0,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**290,5** mlrd so'm), Hazorasp (**7,7** mlrd so'm) va Xonqa (**4,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **209,7** mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,5 %** ga kamaydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi, statistik hisoblarga qaraganda, **161,9** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **77,2 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **77,2 %** ni tashkil qildi.


# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA MIKROFIRMALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Urganch (**4,3 b.**), Bog'ot (**138,6 %**) tumanlari va Urganch (**108,5 %**) shahrida kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 156** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **421** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **124,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2126** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>209,7</b>	<b>90,5</b>	<b>47,8</b>	<b>2,1 b.</b>	<b>161,9</b>	<b>77,2</b>
Urganch sh.	99,1	78,2	13,4	108,5	85,7	74,9
Xiva sh.	5,5	63,5	0,0	5,7	5,5	63,9
Bog'ot	3,8	103,1	2,6	138,6	1,2	66,7
Gurlan	5,8	102,7	0,7	-	5,1	90,6
Qo'shko'pir	1,7	77,5	0,0	-	1,7	77,3
Urganch	56,2	135,9	30,6	4,3 b.	25,6	74,9
Hazorasp	2,7	72,7	0,0	43,1	2,7	73,0
Tuproqqal'a	2,3	76,3	-	-	2,3	76,4
Xonqa	4,6	71,5	0,4	98,6	4,3	69,9
Xiva	16,6	100,3	0,0	-	16,6	100,3
Shovot	3,3	77,4	-	-	3,3	77,4
Yangiariq	4,7	95,0	0,0	-	4,7	94,9
Yangibozor	3,4	78,0	0,1	99,3	3,2	77,4



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 62-224-65-09**